

Termiz shahri va Termiz tumanida maktablarning isitish tizimi o'rganildi. G'alla bo'yicha seminar o'tkazildi



Surxondaryo viloyati hokimi Ulug'bek Qosimov Termiz shahridagi 16-sonli umumta'lim maktabida bo'lib, yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi va DXSh asosida joriy etilgan markazlashgan isitish hamda ko'mirdan kogeneratsiya usulida elektr energiyasi bilan ta'minlash tizimlari bilan tanishdi.

Keyingi manzilda, Termiz tumanidagi 1-sonli maktabda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish, markazlashgan isitish tizimini joriy etish ishlari bilan tanishildi. Shu yerning o'zida tumandagi barcha ijtimoiy soha ob'ektlarida DXSh asosida mazkur tizimni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar taqdimot qilindi. Mas'ullarning axboroti tinglandi.

Shuningdek, Termiz tumani "Namuna" hududidagi "Nurmuhammad Namuna" fermer xo'jaligining 14 gektarlik maydonida 2024 yil hosili uchun g'alla ekish ishlari bo'yicha seminar o'tkazildi. Tumanda 4,9 ming gektar maydonda g'alla ekish rejalashtirilgan bo'lib, shundan bugungi kunga qadar 783 gektarida urug' ekilgan.

Viloyat rahbari mas'ullarga yo'lga qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish, kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish, g'alla ekish ishlarini jadallashtirish bo'yicha vazifalarni belgilab berdi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)